

UDC: 343.140.02(045)(575.1)

## ADVOKATNING DALILLAR TO'PLASH VA MUSTAHKAMLASH JARAYONIDAGI ROLINI OSHIRISH

**Gafurov Mavlon Kuchkarovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi  
ORCID: 0000-0002-6322-6379  
e-mail: gmavlon@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jinoyat ishlari bo'yicha isbot qilishni amalga oshirishda himoyachining tutgan o'rni va ahamiyati, mazkur masalani tartibga solish bo'yicha qonunchilik hujjatlari tarixi hamda olimlarning fikrlari, shuningdek, qonunchilik hujjatlaridagi huquqiy bo'shliqlar, amaliyotdagi muammolar tahlil qilingan. Jumladan, O'zbekiston SSR Jinoyat-protsessual kodeksida ayblanuvchining himoyachiga ega bo'lish huquqi ko'rsatilmagan. Faqat prokurorning qarori va ruxsati bilangina himoyachi ayblanuvchiga ayb e'lon qilingan paytdan ishtirok etishiga yo'l qo'yilgan. Mustaqil O'zbekiston sharoitida qonunchilik hujjatlari xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida tubdan qayta shakllantirilib, advokatlarning huquqiy maqomi oshirilgan, biroq, shu bilan birga, shaxs huquqlarining to'laqonli himoyasi uchun qonunlarda yetarlicha imkoniyat yaratilmagan. Jumladan, qonunda himoyachi tomonidan daliliy ahamiyatga ega ma'lumotni olish, uni qayd etish va tergov organiga taqdim etish tartibi belgilanmagan. Bundan tashqari, himoyachini dalillar to'plash subyektlari qatoriga qo'shish yoki qo'shmaslik masalasida yakdil fikrga kelinmagan. Shuningdek, amaliyotda advokatning iltimosnomasini asossiz rad etish holatlarining oldini olish choralari ko'rilmagan. Keltirilgan tahlillar asosida advokatning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** advokat isbot qilish subyekti, isbot qilish, iltimosnoma kiritish, dalillar to'plash, tortishuvchanlik.

## ПОВЫШЕНИЕ РОЛИ АДВОКАТА В ПРОЦЕССЕ СОБИРАНИЯ И ЗАКРЕПЛЕНИЯ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ

**Гафуров Мавлон Кучкарович,**  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье проанализированы роль и значение защитника при доказывании по уголовным делам, история законодательных актов и мнение ученых по регулированию данного вопроса, в том числе правовые пробелы в законодательных актах, проблемы на практике. В частности, в Уголовно-процессуальном кодексе Узбекской ССР не было указано право обвиняемого на защиту. Защитник допускался к участию в деле только по решению и с согласия прокурора с момента представления обвинения. В условиях независимого Узбекистана акты законодательства были усовершенствованы в корне, с учетом международных стандартов и передового зарубежного опыта, статус адвокатов повышен, однако вместе с тем в законах не созданы надлежащие возможности для полноценной защиты прав. Так, в законе не урегулирован порядок получения адвокатом сведений, имеющих доказательное значение, их закрепления и предоставления следственному органу. В дополнение

к этому, отсутствует единое мнение по вопросу о включении адвокатов в ряд субъектов собирания доказательств. Не приняты меры по предупреждению случаев безосновательного отказа при ходатайстве адвоката на практике. При анализе результатов исследования представлены обоснованные предложения по расширению прав и возможностей адвоката.

**Ключевые слова:** адвокатский предмет ходатайства, ходатайство, внесение ходатайства, собирание доказательств, состязательность.

## INCREASING THE ROLE OF THE LAWYER IN THE PROCESS OF COLLECTING AND CONFIRMING EVIDENCE

**Gafurov Mavlon Kuchkarovich,**  
Independent Researcher  
of Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article analyzes the role and importance of the defence counsel in proving criminal cases, the history of legislative acts and the opinion of scientists on the settlement of this issue, legal gaps in legislative acts, and problems of practice. In particular, the Criminal Procedural Code of the Uzbek SSR does not specify the right of the accused to defence. Only by the decision and consent of the prosecutor was the defence lawyer allowed to participate in the case from the moment the charges were brought. Under the conditions of independent Uzbekistan, the status of lawyers has been raised, but the laws do not create sufficient opportunities for the full protection of the rights of individuals. The law does not regulate the procedure for a lawyer to obtain data of evidentiary value, secure it and provide it to the investigating authority. In addition, there is no consensus on the issue of including a lawyer in a number of subjects for collecting evidence. Measures have not been taken to prevent cases of groundless refusal of a lawyer's petition. Based on the analysis, substantiated proposals for the empowerment of a lawyer are presented.

**Keywords:** lawyer, subject of proof, proof, petition, collection of evidence, adversarial nature.

### Kirish

Jinoyat ishlari bo'yicha isbot qilishni amalga oshirishda himoyachining tutgan o'рни, uning dalillar to'plash va mustahkamlash borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ilmiy doira vakillari, qonun ijodkorlari va amaliyotchilarning doimiy diqqat-e'tibor markazida bo'lib kelgan.

Bu bejiz emas, chunki himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoyasini ta'minlash vakolatiga ega yagona subyekt hisoblanadi va u o'z zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatli vazifani samarali amalga oshira olishi, davlatning ayblov apparati qarshisida o'zining himoya pozitsiyasini lozim darajada va teng maqomda ta'minlay olishi uchun barcha zaruriy huquqiy imkoniyatlarga ega bo'lishi talab etiladi.

### Material va metodlar

Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli yondashuv, qiyosiy-mantiqiy, analiz, so'rov, kompleks yondashuv kabi usullar qo'llanilgan.

### Tadqiqot natijalari

Himoyachining jinoyat protsessi, jumladan, dalillar to'plash borasidagi ishtiroki masalasiga turli davrlarda turlicha yondashuvlar bo'lgan. Xususan, 1959-yil 21-mayda qabul qilingan O'zbekiston SSR Jinoyat-protsessual kodeksida "jabrlanuvchi, grajdanlik da'vogari, grajdanlik javobgari, gumondor, ayblanuvchi "dalillar taqdim etishga haqli" deb belgilangan bo'lsa-da, ayblanuvchining huquqlari sanab o'tilgan moddada uning himoyachiga ega bo'lish huquqi ko'rsatilmagan [1, 26-b.].

Bundan tashqari, ushbu Kodeksda himoyachining isbot qilish jarayonidagi ishtiro-

ki *jiddiy ravishda cheklangan*. Xususan, Kodeksning 42-moddasida *himoyachining ishda ishtirok etishiga faqat dastlabki tergov tamom bo'lganligi to'g'risida ayblanuvchiga ma'lum qilingan va ishga oid materiallar tanihib chiqish uchun ayblanuvchiga ko'rsatilgan paytdan boshlab yo'l qo'yilishi* qayd etilgan. Faqat prokurorning qarori va ruxsati bilanгина himoyachi ayblanuvchiga ayb e'lon qilingan paytdan ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, Kodeksda voyaga yetmaganlarning, soqovlar, karlar, ko'rlar va o'zining jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari sababli o'zini-o'zi himoya qilish huquqini amalga oshira olmaydigan boshqa shaxslarning ishlarini dastlabki tergov qilish va sudda ko'rish paytida himoyachining ishtirok etishi majburiyligi, bunday hollarda ham *ayblanuvchiga ayb e'lon qilingan paytdan boshlab* ishda himoyachi ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi belgilangan.

Bundan tashqari, Kodeks bilan himoyachining dalil to'plash va taqdim etish bo'yicha ham imkoniyatlari *qat'iy chegaralangan* va prokuror, tergovchiva surishtiruvchining *xohish-irodasiga bog'liq qilib qo'yilgan*.

Jumladan, Kodeksda himoyachi dalillar *to'plash huquqiga ega ekanligi ko'rsatilma-gan*, balki u dalil-isbot *taqdim etishni iltimos qilishga* haqli ekanligi qayd etilgan.

Shuningdek, agar himoyachi so'roq vaqti-da hozir bo'lsa, *tergovchi orqali* savol berishga haqli bo'lgan.

Albatta, bunday yondashuv bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi, ayniqsa, inson huquqlari oliy darajada e'tirof etilayotgan hozirgi davrda.

Hattoki o'sha davrning protsessualist olimlari ham qonunchilikdagi bunday yondashuvni *tanqid qilib*, himoyachi – advokatning o'ziga dalillar to'plash huquqini berish orqali taraflarning tengligini ta'minlash zarurligini ta'kidlashgan [2, 107-b.].

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Mustaqillik yillarida inson va umume'tirof etilgan huquqlarining ustuvorligi tan olini-

shi asnosida advokatlar maqomini oshirish, huquqlarini kengaytirish va tortishuvchanlik prinsipi doirasida prokuror bilan tengligini ta'minlashga qaratilgan bir qator choralar ko'rildi.

1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasida ayblanuvchi himoyalani-huquqi bilan ta'minlanishi, tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi belgilandi. Mazkur konstitutsiyaviy kafolatlar 1994-yilda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi hamda 1996-yilda qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda ham o'z aksini topdi.

Biroq eski davr an'analaridan butunlay voz kechilmagan amaliyot ushbu qonunlarga ham ta'sir ko'rsatib, advokatlarga dalillar to'plash huquqini taqdim etish masalasi yana ortga surildi.

Lekin O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 1-maydagi "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan mazkur muammolarning bir qismini hal qilishga erishildi.

Unda himoyachiga dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar: ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni *so'rovdan o'tkazish* hamda ularning roziligi bilan *yo-zma tushuntirishlar olish*; davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlar olish orqali to'plash *huquqi berildi*. Shu bilan birga, himoyachi to'plangan materiallarni ishga qo'shib qo'yish to'g'risida gi iltimosnoma kiritishi mumkinligi ko'rsatilib, bu iltimosnoma surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan, *albatta, qanoatlantirilishi kerakligi* belgilandi.

Keyinchalik mazkur norma takomillashtirilib, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil

4-apreldagi O'RQ-470-sonli "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni asosida "iltimos-noma kiritish" jumlasini o'rniga "*dalillar taqdim etish*" huquqi belgilandi. Shu bilan birga, himoyachi taqdim etgan dalillar jinoyat ishi materiallariga *qo'shib qo'yilishi*, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sud-da ko'rish jarayonida *majburiy baholanishi* lozimligi qat'iy belgilandi [3].

Shu o'rinda aytish joizki, Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi 1-qismida "dalillar to'plash dastlabki tergov va sud harakatlarini yuritish, shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan to'planadi" [4], deb ko'rsatilgan.

Bir qarashda O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, dalillar to'plash qonun bilan tegishli vakolat berilgan subyektlar, xususan, tergov, sud va tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish vakolatiga ega *mansabdor shaxslar tomonidan-gina amalga oshiriladi*, degan xulosaga kelish mumkin.

Aynan mazkur fikrni mamlakatimiz olimlari, jumladan, B.A. Rajabov, L.Z. Turdiyevlar o'z izlanishlarida ilgari surgan [5, 62-b.].

Lekin bunday yondashuv bilan kelishib bo'lmaydi, chunki dalillar to'plash jarayoniga taalluqli ushbu normani *subyektlar doirasini belgilovchi* norma sifatida emas, balki jinoyat ishi bo'yicha ish yurituv boshlangandan to uning yakuniga qadar bo'lgan bosqichlarni ifodalovchi qoida sifatida tushunish maqsadga muvofiq.

Chunki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi 2-qismida *himoyachi* ham jinoyat ishi bo'yicha dalillar to'plash va taqdim etishga *haqli* ekanligi belgilangan bo'lib, unga muvofiq, himoyachi tomonidan to'plangan va taqdim etilgan dalillar jinoyat protsessin-

ing har qanday bosqichida ish materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sud-da ko'rish jarayonida majburiy baholanishi lozim.

B.A. Rajabov, L.Z. Turdiyevlar mazkur masalaga doir fikrlarini davom ettirib, Jinoyat-protsessual kodeksi 87-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan protsessual normalar bir-biriga zid hisoblanishi, chunki himoyachiga tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish, tergov va sud harakatlarini amalga oshirish vakolati berilmaganligini asos sifatida keltirganlar [5, 63-b.].

Mualliflarning bu fikri bilan ham kelishib bo'lmaydi. Chunki Jinoyat-protsessual kodeksining ishtirokchilar huquqlarini belgilovchi normalarida umumiy norma sifatida "dalillar to'plash va taqdim etish" huquqi berilgan va mazkur huquq jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishning qaysi bosqichida amalga oshirilishi lozimligi ko'rsatilmagan.

Bundan tashqari, ushbu Kodeksning 87-moddasi 2-qismida himoyachi tomonidan taqdim etilgan dalillar "jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sud-da ko'rish jarayonida majburiy baholanishi lozim" deb belgilangan. Ya'ni himoyachi tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sud-da ko'rish jarayonlarida dalillar to'plashi va taqdim etishi mumkin hamda u taqdim etgan dalillar ish materiallariga qo'shib qo'yilishi va baholanishi lozim.

O'z navbatida, qayd etib o'tish joizki, jinoyat-protsessual qonun himoyachi tomonidan daliliy ahamiyatga ega ma'lumot olish, uni qayd etish va tergov organiga taqdim etish jarayonining o'zini tartibga solmagan [6, 47-b.].

Qonun ijodkori tortishuvchanlik va tenglik prinsiplarini ta'minlashga urinib, dalillar to'plash huquqini ham ayblov tarafdagi, ham himoya tarafdagi taqdim etgan. Biroq himoyachiga bunday huquq beruvchi norma-

lar bilan dalillar to'plashning tartibi va usullari, ularni mustahkamlash va tekshirishni belgilovchi normalar o'rtasida qarama-qarshilik vujudga keldi. Ushbu muammo dalillar nazariyasi nuqtayi nazaridan fikrlash va qonun darajasida hal etishni talab qiladi [7, 5-6-b.].

Mazkur fikrni davom ettirib, E.X. Narbutayev himoyachi dalillar to'plash imkoniyatidan foydalanishi mumkin, lekin himoyachi tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlar shakli va mazmuni bo'yicha dalillar to'plashga oid talablarga javob bermasligini qayd etgan [8, 48-b.].

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik himoyachi tomonidan to'plangan, ayniqsa, so'roq qilish orqali olingan *dalillar mustahkamlash shaklini belgilamagan*. Dalillar to'plashda himoyachi ishtirokida qonunchilikda nazarda tutilgan, lekin himoyachi tomonidan to'plangan ma'lumotlar, ular sud ishlari ni yuritayotgan shaxslarga taqdim etilgan dan so'nggina dalilga aylanishi mumkin. Sud ishlari ni yuritayotgan shaxslar himoyachi taqdim etgan ma'lumotlarni ish uchun ahamiyatli deb tan olishlari va ularga zarur protsessual shakl berishlari kerak [9, 23-b.].

A.P. Popov boshchiligidagi mualliflar mazkur masalaga e'tibor qaratib, "qonun dalillar taqdim etish huquqini bergan bo'lsa-da, lekin uning protsessual shakli belgilanmagan, ya'ni ushbu huquqni amalga oshirish tartibi o'rnatilmagan. Bu holatlarda huquqni qo'llovchilar doim ham qonunga mos kelavermaydigan harakat qilishga majbur bo'ladilar. Lekin ish uchun ahamiyatga ega ma'lumotlarni to'plash bo'yicha harakatlarni amalga oshirishning qonun bilan aniq va bir xilda o'rnatilgan tartibisiz ularning ishonchligini ta'minlash qiyin" [10, 129-b.]ligini qayd etadilar. Bu fikrni Yu. Pulatov, G. To'laganova [6, 47-b.] ham qo'llab-quvvatlagan.

Darhaqiqat, so'nggi vaqtlardagi ilmiy izlanishlarda himoyachining Jinoyat-protsessual kodeksning 87-moddasida ko'rsatilgan harakatlarini *dalillar to'plash sifatida baho-*

*lash lozimligi* qayd etilmoqda. Mualliflar tortishuvchilik prinsipini izchil hayotga tatbiq etish va shu tariqa isbot qilish jarayonida advokatlar rolini oshirish zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Bu fikr bilan kelishmasdan iloji yo'q. Lekin himoyachining protsessual shaklga rioya etilmagan holdagi erkin harakatini (so'rov o'tkazish, yozma tushuntirishlar olish, hujjatlarni olish) dalillar to'plash deb hisoblash uchun uning isbot qilish jarayonini qat'iy tartibga soluvchi qonun normalariga qanchalik mosligiga e'tibor qaratish lozim.

Barcha olimlar ham himoyachi tomonidan amalga oshirilgan so'rov natijalarini mustaqil daliliy ahamiyatga ega deb hisoblamaydi. V. Falileyev va Yu. Garmayevlar "agar himoyachi so'rov natijasida ayblanuvchining holatini yengillashtiruvchi ma'lumot olgan taqdirda ham, ular faqat vakolatli subyektlar (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror) ushbu shaxsni so'roq qilganlaridan keyingina maqbul dalil hisoblanadi, negaki so'rov tergov harakati hisoblanmaydi va, demak, u orqali dalil olinmaydi" [11, 90-91-b.], deb hisoblaydi.

Bundan tashqari, ayrim olimlar, haqiqatan ham, ba'zi himoyachilar tomonidan taqdim etilgan dalillar va so'rovlar o'tkazish orqali olingan ma'lumotlarni har doim ham maqbul dalil deb bo'lmasligi, ular, albatta, tekshirishi va baholanishi shartligi, chunki bunda tazyiq, shantaj, fuqaroni o'z tomoniga og'dirib olish yoki uni chalg'itish holatlari uchraydi, deb hisoblaydilar. Shuningdek, ushbu muammoni hal etish uchun qonunda himoyachi tomonidan noqonuniy harakatlar sodir etilishiga qarshi kafolatlar belgilangan bo'lishi kerakligi, bunday kafolatlar qatoriga so'rov o'tkazishni texnik vositalar yordamida qayd etish (masalan, videoyozuv) yoki notarius ishtirokini kiritadilar hamda bunday tartibda o'tkazilgan so'rovni keyinchalik tergovchi tomonidan qayta so'roq qilishga zarurat qolmasligini ta'kidlaydilar [6, 50-b.].

Bundan tashqari, himoyachini dalillar to'plash subyektlari qatoriga qo'shish yoki

qo'shmaslik masalasida olimlarning fikri ikkiga bo'lingan. Bir qator olimlar, jumladan, N.N. Egorov [12, 8-9-b.], V.I. Tolmosov [13, 7-6-b.], A.S. Zakotyanskiy [14, 10-11-b.], N.V. Palchikova [15, 11-b.], A.A. Larinkov [16, 8-10-b.]lar *himoyachini dalillar to'plash subyektlari qatoriga kiritmasdan*, ular faqat dalil sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plashi mumkinligini qayd etgan bo'lsa, B.A. Rajabov [5, 64-b.], L.G. Demurchev [17, 13-14-b.], N.A. Popova [18, 10-b.], I.E. Milova [19, 7-b.], N.P. Sareva [20, 11-b.], Ye.B. Smagorinskaya [21, 5-10-b.], A.D. Geroyevlar [22, 11-12-b.] *himoyachilar, albatta, dalillar to'plash subyektlari qatorida bo'lishlari lozimligini* aytganlar.

Xususan, B.A. Rajabov O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 86-moddasining birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: "Isbot qilishni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud va advokat amalga oshiradi. Himoyachi (advokat) hujjatlar va tushuntirishlar *talab qilib olish*, shaxslarni so'rovdan o'tkazish va ekspertiza tayinlash orqali dalillar to'plashi va tekshirishi mumkin" [23, 28-b.].

Himoyachiga bunday huquqlar berish juda bahsli va qaysidir ma'noda jamiyatda hokimiyat vakolatlari, jumladan, kuch ishlatish vakolatlarining taqsimoti bilan bog'liqdir. Chunki dalillarni *kuch ishlatish orqali* to'plash himoyachining protsessual maqomiga xos emas va bunday huquq qonunan davlatning majburlov apparatiga aloqador idoralar, jumladan, tergovni amalga oshirayotgan hamda uning borishi va natijasi uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar tomonidan tegishli nazorat va javobgarlik tahdidi bilan berilganligi to'g'ridir.

Ushbu fikrni Yu. Pulatov, G. To'laganova qo'llab-quvvatlab, "himoyachiga, uning protsessual statusi va ishni yuritishda ishtirokidani maqsadidan kelib chiqib, dalil-

lar to'plash *majburiyatini yuklash* mantiqsiz bo'lgan bo'lar edi. Isbot qilish majburiyati ayblov tarafiga yuklatilgan. Himoyachi aybsizlik yoki yengillashtiruvchi holatlarni isbotlaganda, himoyasi ostidagi shaxsning aybdorligini bildirgan bo'lar edi va bu holat *aybsizlik prezumpsiyasiga zid hisoblanadi*. Shu bilan birga, qonun uning dalillar to'plash huquqini hech qanday cheklamayapti", degan xulosaga kelishgan [6, 49-b.].

Ayrim amaliyotchi advokatlar bugungi kunda himoyachiga qonun bilan berilgan imkoniyatlar himoya ostidagi shaxsning huquqlarini to'laqonli himoya qilish uchun yetarli, faqat undan qanday tartibda va ko'rinishda foydalanishni *bilishning o'zi yetarli*, deb hisoblaydilar.

Buni amaliyotdagi ko'plab misollar orqali ham ko'rish mumkin.

Masalan, fuqaro "M" advokat "B"ga murojaat qilib, giyohvand moddalar savdosiga suiqasd qilishda ayblanayotgan 19 yoshli qizi "O"ga huquqiy yordam ko'rsatishini so'ragan. Bu vaqtda birinchi instansiya sudi "O"ga nisbatan hukm e'lon qilgan va unga 7 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlagan. "O" aybini to'liq bo'yniga olgan. Tergov va sud davrida "O"ning himoyasi bilan boshqa advokat shug'ullangan. Sudlanuvchining aybiga to'liq iqrorligi hukmni bekor qilish yoki jazoni yengillashtirishga hech qanday imkoniyat bermasdi. Ish hujjatlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, "O" internetdagi e'lon orqali 40 ta paketchada giyohvand moddalar sotib olgan, keyin uni tezkor xodimlar ushlagan. Advokatning ishtirokisiz o'tkazilgan so'roq davomida u giyohvand moddalarni sotishga tayyorgarlik ko'rishda aybini tan olgan. Bu holat jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar tezkor xodimlar tomonidan o'tkazilgan so'roq davomida qayd etilgan. "O" gumonlanuvchi va ayblanuvchi tariqasida, suddagi so'rog'ida, oxirgi so'zida ham iqrorlik ko'rsatmasini bergan. Shu tariqa hukm qonun talabiga javob berardi. Shu orada advokat "B" bilan uchrashuvda "O" boshqa holat haqida gapirgan.

U ikki marta giyohvand moddalar saqlaganlik uchun sudlangan “G” ismli dugonasi borligi; vaqti-vaqti bilan “G” olib keladigan giyohvand moddalarni iste’mol qilishgani; bir kuni uzoq tanaffusdan so’ng “G” unga qo’ng’iroq qilib, birgalikda iste’mol qilish uchun internet orqali giyohvand moddalar sotib olishni so’raganligi; o’zi doim sotib oladigan internet do’koni orqali endi giyohvand moddalar sotib ololmayotganini tushuntirgani; keyin “O” “G” ko’rsatgan manzilda internet orqali giyohvand moddalar yetkazuvchilar bilan bog’langani va ular giyohvand moddalar joylab qo’yilgan tuynukni “O”ga aytishgani; so’ng “O” aytilgan joyga borgani, lekin u yerda giyohvand moddalar ikkita emas, qirqta paket bo’lgani; “O” ularni olib, “G”ning oldiga borgani, ammo uchrashuvga “G” bir nechta yigit bilan, keyinchalik ma’lum bo’lishicha, xodimlar bilan kelganini aytib bergan. Jinoyat ishida esa bu haqiqiy holatlar aks etmagan. Advokat “B”ning nima uchun bu masalalarni “O”ning himoyachisi tergov va sud davrida ko’tarmaganini so’raganida, “O” bular haqida himoyachiga aytgani, lekin himoyachi unga hech narsani isbotlab bo’lmasligi, yaxshisi, aybni bo’yniga olish orqali kamroq jazo muddati olish kerakligini tushuntirganini ma’lum qilgan. Himoyachi “G”ning roli haqida gapirmaslikni maslahat berib, uning giyohvand moddalarni sotib olishdagi ishtirokini isbotlab bo’lmasligini aytgan. Holatning o’ziga xosligi yana shundaki, “O”ning onasi ham “O”ga ta’sir o’tkazib, himoyachining pozitsiyasidan chiqmaslikni tayinlagan. Bunday holatda ikkinchi advokatning (ya’ni advokat “B”) vazifasi ishning haqiqiy holatlarini apellatsiya instansiyasiga yetkazishdan iborat bo’lgan. Lekin sudlanuvchining o’zgartirilgan ko’rsatmalarining o’zi apellatsiya instansiyasi uchun yetarli emas edi. Sudlanuvchining yangi pozitsiyasini tasdiqlovchi qo’shimcha ma’lumotlar va guvohlik ko’rsatmalari talab etilar edi.

Advokat “B” guvohlar – “O”ning “G” bilan tanish ekanini to’liq tasdiqlovchi dugonalari-

ni topgan. Guvohlar “G”ni katta tajribaga ega giyohvand ekanini aytishgan. So’ng advokat “B” “G”ning shaxsiy ma’lumotlarini bilib, uni so’rovdan o’tkazmoqchi bo’lgan, lekin buni amalga oshirishning iloji bo’lmagan, sababi “G” undan o’zini olib qochgan. Keyin advokat “B” “G” giyohvand moddalar savdosi uchun sudlangan so’nggi jinoyat ishini so’rab olgan. Hukm nusxasini o’rgana turib, “G”ni ham “O”ni ushlagan tezkor xodimlar ushlaganligi ma’lum bo’lgan. Shu bilan birga, jinoyat ishini qo’zg’atgach, tergovchi “G”ni qamoqqa olish to’g’risida iltimosnoma bermagan, sud esa uni yosh bolalari borligini inobatga olib, jazoni o’tashdan ozod qilgan. Barcha dalillar “G”ning tezkor xodimlar bilan bog’liq ekani va sudlangandan so’ng ularning provokator agenti bo’lganini yaqqol tasdiqlab turardi.

Olib borilgan ishlar natijasida apellatsiya instansiyasida yangi guvohlar – “O”ning dugonalari so’roq qilinib, ular “O”ning “G” bilan munosabati haqida ko’rsatma bergan. Himoya taraf sudga “G”ga nisbatan sud hukmlari nusxalarini taqdim etgan. Ularda “G”ni ushlagan tezkor xodimlar keyinchalik “G” ishtirokida “O”ni ushlagani ko’rinib turardi. Sudda, shuningdek, “O”ning onasi ishtirok etgan va “O”ning o’zi ko’rsatmalarini o’zgartirgan. Ularning chiqishlaridan shu narsa oshkor bo’ldiki, “O”ni tergov va birinchi instansiya sudida himoya qilgan advokat ayblov bilan kelishish pozitsiyasini egallagan, ishning haqiqiy holatlarini esa yashirgan. Shuningdek, “O”ning onasi advokat bilan suhbat va uning “O”ga jinoyat holatlari haqida haqiqatni gapirmaslik to’g’risidagi maslahatlarini sudga batafsil aytib bergan. Himoya, shuningdek, yangi to’plangan dalillarga asosan, tezkor xodimlarda avvaldan “O” giyohvand moddalar sotishga harakat qilgani haqida ma’lumot bo’lmaganini qayd etgan. Apellatsiya instansiyasi sudi himoya tarafning vajlari bilan kelishib, hukmni bekor qilib, “O”ni qamoqdan ozod qilgan va ishni qaytadan birinchi instansiya sudida ko’rib chiqish uchun yuborgan. Birinchi instansiya sudi esa himoyaning

barcha vajlarini o'rganib, "O"ni faqatgina giyohvand moddalarni noqonuniy saqlaganlikda aybdor deb topgan va shartli hukm qilgan [24, 24-28-b.].

Mazkur misoldan, qolaversa, amaliyotda ko'plab uchraydigan bu kabi holatlardan ma'lum ma'noda himoyachining dalillar to'plash va taqdim etish borasidagi mavjud huquqlari va imkoniyatlari shaxs huquqlarini ishonchli va samarali himoya qilish uchun yetarli ekanligi ko'rinadi. Bunda faqat advokatning *professionallik darajasi, ish tajribasi va qonun taqdim etgan imkoniyatlardan unumli foydalanish layoqatiga egaligi* bilan yutuqqa erishish mumkin.

Shu bilan birga, advokatlarning amaliyotda uchrab turadigan bu kabi yutuqlari jinoyat protsessida advokatning dalillar to'plash borasidagi vakolatlarini *yanada kengaytirish*, sohadagi muammolar va qonunchilikdagi *mavjud huquqiy bo'shliqlarni bartaraf* etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni davom ettirish vazifasidan ozod qilmaydi va, aksincha, ularni yanada jadallashtirishni taqozo etadi.

Masalan, yuqorida aytganimizdek, Jinoyat-protsessual kodeksning 87-moddasi ikkinchi qismida himoyachi jinoyat ishi bo'yicha dalillar to'plash va taqdim etishga haqli ekanligi, ular jinoyat ishi materiallariga *qo'shib qo'yilishi*, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sudda ko'rish jarayonida *majburiy baholanishi lozimligi* belgilangan. Lekin advokat o'z imkoniyatidan kelib chiqib to'plagan bu dalillar ishini to'g'ri hal etish uchun xizmat qiladigan dalillarning *bir qismigina bo'lishi mumkin, xolos*.

Sir emaski, ko'plab jinoyat ishlarida *hal qiluvchi ahamiyatga ega* dalillar *tergov* va *sud harakatlarini yuritish* (masalan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi, ekspertni so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; ko'rsatmani hodisa ro'y bergan joyda tekshirish; olib qo'yish; tintuv; ko'zdan kechi-

rish; guvohlantirish; murdani eksqumatsiya qilish; eksperiment o'tkazish; ekspertiza tadqiqotlari o'tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish), shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish *yo'li bilan to'planadi*.

Himoya nuqtayi nazaridan ushbu harakatlarni o'tkazishga *zarurat tug'ilganda esa* himoyachida *birgina instrument* – iltimosnoma berish imkoniyati bor, xolos. Qonun esa bunday iltimosnomalarni hal etish masalasini to'liq tergovchi (JPK 377-modda) va surishtiruvchi (JPK 381<sup>14</sup>-modda) *ixtiyoriga bog'liq qilib qo'ygan*.

Bunday deyishimizga sabab surishtiruvchi va tergovchi tomonidan iltimosnomalarni ko'rib chiqish tartibi belgilangan ushbu moddalarda faqatgina "tergovchi (yoki surishtiruvchi) iltimosnomani to'la yoki qisman rad qilish to'g'risida qaror chiqarishi ... bu qaror ustidan ikki sutka ichida prokurorga shikoyat qilinishi mumkinligi" haqidagi qoida mustahkamlangan.

Eng e'tiborli tomoni ushbu moddalarda *"qanoatlantirish"* degan so'z *uchramaydi*. Go'yoki bu kabi *iltimosnomalarga nisbatan bo'lishi kerak bo'lgan munosabat qonunda oldindan belgilab qo'yilgandek*.

Aytish joizki, himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchining huquqlarini himoya qilish, ishga oydinlik kiritish va haqiqatni aniqlash maqsadida bunday iltimosnomalarni beradi. Bular, asosan, guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza o'tkazish, olib qo'yish ko'rinishida bo'ladi.

Jinoyat ishi uchun ahamiyatli holatlarni o'rganish qo'shimcha dalillar to'plashga bog'liq bo'lsa, bunday iltimosnomalarni *bemalol va hech qanday to'sqinliksiz rad etish imkoniyatining mavjudligi* nafaqat ushbu idoralar oldida turgan vazifalar, balki jinoyat-protsessual qonunchilikning vazifalariga ziddir.

### Xulosalar

Shu sababli, fikrimizcha, surishtiruvchi, tergovchi himoyachining (yoki protsessning boshqa ishtirokchisining) dalillar to'plash maqsadida muayyan tergov harakatlari o'tkazish haqidagi iltimosnomasiga, agar holatlar ish uchun ahamiyatli bo'lsa, *rad javobini berishga haqli bo'lmashligi kerak*.

Bugungi kunda qonunchilikda bu kabi normaning mavjud emasligi *himoyachining dastlabki tergov davrida dalillar to'plash huquqi to'laqonli amalga oshirilmashligiga sabab bo'lmoqda*.

Qonun ijodkori *sud tomonidan iltimosnomalarni ko'rib chiqish masalasida ushbu muammolarga birmuncha e'tibor qaratib, "taraf arz qilgan har bir iltimosni muhokama qilib, sud boshqa tarafning fikrini tinglaydi va basharti, iltimos ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, uni qanoatlantiradi, aks holda, qanoatlantirishni rad etadi"* degan qoida JPKning 438-moddasida qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqni bartaraf etish va sudga qadar ish yurituv davrida himoyachi-

ning iltimosnomasi asosida dalillar to'plash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Jinoyat-protsessual kodeksi 377-moddasining ikkinchi qismini *quyidagi tahrirda bayon qilish* maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

"Taraflarning arizasiga binoan, iltimosnomalar tayyorlash va taqdim qilish uchun uch sutka doirasida vaqt berilishi mumkin. Tergovchi iltimosnomani *qanoatlantirish yoxud to'la yoki qisman rad qilish to'g'risida qaror* chiqaradi va bu haqda iltimosnoma berilgan vaqtdan boshlab uch sutka ichida arizachiga xabar beradi. *Agar iltimosnoma jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza tayinlash va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish haqida bo'lsa, uni rad etishga yo'l qo'yilmaydi*".

Xuddi shunday o'zgarishni JPK 381<sup>14</sup>-moddasi ikkinchi qismida ham aks ettirish lozim.

Qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish himoyachining dalillar to'plash borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish, natijada shaxs huquq va erkinliklarining yanada samarali himoya qilinishiga xizmat qiladi.

### REFERENCES

1. Makarov A.M., Alekseeva L.B. What to be a criminal process? *Soviet state and law*, Moscow, 1990, no. 11, p. 152.
2. Razhabov B.A., Turdiev L.Z. Collection of evidence in the criminal process of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2020.
3. Pulatov Yu., Tulaganov G. On the evidentiary value of the materials provided by the defence counsel at the stage of pre-trial proceedings. *Lawyer*, 2017, no. 3.
4. Balakshin V.S. Evidence in the theory and practice of criminal procedure proof: The most important problems in the light of the Code of Criminal Procedure of the Russian Federation. Abstract of Doctor's degree dissertation. Yekaterinburg, 2005.
5. Narbutaev E.Kh. Jinoyat protsessi [Criminal proceedings]. Tashkent, Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2013.
6. Tyumentseva V. Collecting evidence in criminal proceedings. Graduation qualified work. Tomsk, 2016.
7. Popov A.P., Popova I.A., Zinchenko I.A. Problems of modern criminal procedure evidence law. Pyatigorsk.

8. Falileev V., Garmaev Yu. Limits of the powers of the defence counsel to collect evidence (view from the side of the prosecution). *Criminal Law*, Moscow, 2003, no. 1.
9. Egorov N.N. Theoretical and applied problems of the doctrine of physical evidence. Abstract of Doctor's degree dissertation. Irkutsk, 2005.
10. Tolmosov V.I. Problems of admissibility of evidence at the pre-trial stages of the Russian criminal process. Abstract of PhD thesis. Samara, 2002.
11. Zakotyansky A.S. Problems of using non-procedural information in proving in criminal case. Abstract of PhD thesis. Samara, 2015.
12. Palchikova N.V. Theoretical and practical problems of proof at the stage of initiating a criminal case. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2013.
13. Larinkov A.A. Theoretical and law enforcement problems of proof at the stage of trial in the court of first instance. Abstract of PhD thesis. St. Petersburg, 2006.
14. Demurchev L.G. Collection of evidence in the course of pre-trial proceedings by carrying out other procedural actions. Abstract of PhD thesis. Krasnodar, 2012.
15. Popova N.A. Physical evidence: Collection, presentation and use of them in proof. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2007.
16. Milova I.E. Participation of a defence lawyer in collecting evidence during the preliminary investigation. Abstract of PhD thesis. Samara, 1998.
17. Tsareva N.P. Other documents admitted as evidence under the Code of Criminal Procedure of the Russian Federation. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2003.
18. Smagorinskaya E.B. Participation of a lawyer in proving in pre-trial criminal proceedings. Abstract of PhD thesis. Volgograd, 2004.
19. Geroev A.D. Participation of a lawyer-defender in proving during the preliminary investigation. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2004.
20. Razhabov B.A. Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta'minlash [Ensuring compliance with the general conditions of proof when conducting the case before the court]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2019.
21. Khalikov A.N. How a lawyer used the right to check and collect evidence. Two successful cases of drug trafficking. *Criminal trial, the practice of successful defence and prosecution*, 2019, no. 9.
22. Rogatkin A.A., Petrukhin I.L. On the reform of criminal procedure law. Problem of the Russian Advocacy. Collection of scientific papers. Moscow, University, 1997.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

3 / 2022

**BOSH MUHARRIR:**

**Tashkulov Akbar Djurabayevich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,  
Sh. Yusupova

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 10.10.2022-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 16,50 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 163.

TDYU tipografiyasida chop etildi.